

Ona yurting - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI
INV. N.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 22 – 28-avgust N:34 (66523)

Ahbor IMOMXO'JAYEV — O'zbekiston sport jurnalistlari uyushmasining raisi, Respublika toifasidagi hakam:

Ozodlik har qanday zamonda ham oliy ne'mat sanalgan. Kimgadir qaram bo'limgan mamlakatning odamlari hamisha ozod fikrlyaydilar. Mustaqillik bolalariga juda havasim keladi. Ular

istiqlol mevasi bo'l mish bolajonlar ona Vatanimiz, mustaqilligimizning qadriga yetib, ko'z qorachig'idek asrashlari kerak. Avvalari biz xorijga chiqish uchun faqat Moskva orqali buyruqni kutardik. Endi esa o'z elimizda xondekmiz. Qaniydi, hayot charxpalagi bir aylansa-yu, sehrgar Ibn Hattobdek yosh bolaga

O'Z ELIMIZDA XONDEKMIZ

biz orzu qilgan, biz ko'rmanan go'zal kunlarni ko'radi. Oddiy misol: istiqlol bolajonlar sportiga keng yo'l ochib berdi. Aytish mumkinki, bu yo'l farzandlarimizni jahon sport maydonlariga yetaklab borayapti. Bugungi o'zbek bolasining har o'ntasidan beshtasi qaysidir sport turiga qatnashyapti va championlik sari intilyapti.

Istiqloldan keyin yurtimizda bolalar uchun sport ommaviy harakatga aylandi. Men bilaman, ular orasida hali dunyoni lol qoldiradigan futbolchilar, bokschilar, kurashchilar bor. Bugungi kunda Amir Temuring «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur» degan naqli shiorga aylangan desam, xato bo'lmaydi. Hatto vatanimizning eng chekka qishloqlarida ham bolajonlarimiz uchun zamonaviy sport inshootlari, maydonlari qurildi va qurilmoqda. Ularning hammasi yetishib kelayotgan avlodning buyuk kelajagiga solinayotgan yo'l deb bilaman. Yana bir narsa,

aylanib qolsam. Chunki bu yurting imkoniyatlaridan xuddi ertaklar kabi foydalanmoq aziz bolajonlarimizga nasib etgani rost bo'lsin. Yulduz Hamroqulovadek, Rustam Qosimjonovdek, Muhammadqodir va Arturlardek sport yulduzlarimiz izdoshlari ko'payaversin.



Faxr

«BAG'RIMGA TEZROQ QAYTING»



Yangi o'quv yilining boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. To'g'risini aytasam, nafaqat ustozlarim va sinfdoshlarimni, balki qadron maktabimni juda sog'indim. Uni bir ko'rib kelay, bizsiz huvillab yotgandir, degan o'ya maktabga borgandim. Bilim maskanimiz men o'ylagandek kimsasiz emas, aksincha, xuddi o'quv yilidagidek gavjum edi. Bir yonda zardo'zlik, munchoq tikish kabi to'garaklarda hunar o'rganayotgan qizlar ishga berilib ketishgan, boshqa tarafda yangi ta'mirdan chiqqan maktabimiz atroflarini tozalash ishlari avjida. Biz ta'tilda miriqib dam olyapmiz. Mehrbon ustozlarimiz esa allaqachon ishni boshlab yuborishibdi. Hattoki maktabimiz rahbari Kozim aka Agzamovning ham qo'li-qo'liga tegmayapti. Dam olish uchun biroz qad rostlaganlarini ko'rib, yugurib yonlariga bordim. Bu yerda amalga

oshirilayotgan ishlар haqida so'radim:

Mahmudjon o'g'lim, o'zing ko'rib turganingdek maktabimizda ish qizg'in. Ta'mirdan chiqqan sinf xonalar, sport zali, muzey va yo'laklarimizni tartibga keltiryapmiz. Maktab hovlisidagi daraxtlarning shoxshabbalarini tekislab, ariqlarni tozalayapmiz. Isitish vositalarini suv bosimi ostida yaxshilab yuvib, qishga taxt qilib qo'yidik. Bir so'z bilan aytganda, bilim maskanimiz yangi o'quv yiliga shay...

Maktabdan uzoqlashar ekanman, u go'yo ortimdan: «Sizlarni juda sog'indim. Tezroq bag'rimga qaytinglar», deyayotgandek tuyuldi.

Sentabr eshik qoqmoqda



Mahmudjon AZIMOV,
poytaxtdagi 169 - maktab o'quvchisi.

«ENDI ISROF QILMAЧMAN»

Kattalar

Bahor va yoz oylarida qishloqlarimizning nihoyatda go'zallashib ketishini bilasiz-a? Yozgi ta'ilni ana shunday so'lim go'shalarda o'tkazishni, maftunkor tabiat qo'ynida miriqib dam olishni kim ham xohlamaydi, deysiz?!

Shu maqsadda men ham Samarqand viloyati, Toyloq tumanining Shopulot qishlog'iда yashovchi xolajonimnikiga otlandim. Ta'til kunlarimning anchasini o'sha yerda o'tkazmoqchiydim. Ammo qishloqdagi sharoitlarni ko'rib, fikrimdan qaytdim. To'g'ri, qishloq manzarasi ko'rsa ko'rgudek, musaffo havosidan nafas olib, to'ymaydi kishi. Lekin elektr energiyasining tez-tez o'chib qolishi yomon ekan-da. Televizor orqali biror qiziqarli filmni tomosha qilib o'tirganimizda, «lip» etib o'chib qolaveradi. Bu yerlarda ichimlik suvi ham oqmas ekan. Xolamdan buning sababini so'rasam, ayrim kishilar suv va elektr energiyasini behuda sarflashadi-da, deb qo'ya qoldilar. Qisqasi, Shopulotdagi sharoit menga sira yoqmadi va tezda uyga qaytdim. Endi suv, gaz va elektr energiyasidan foydalanishda yanada tejamliroq bo'lamon. Behuda isrofgarchilikning oqibatlarini o'z ko'zim bilan ko'rib keldim. «Hamma narsani borda qadrla» deb bejiz aytilmagan ekan-da.

Javlon FARMONOV,
Toshkent shahri, Hamza tumanidagi
206 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Sentabr eshik qoqayapti-yu, bolajonlarning ko'ngli hali ham dalada. Ta'ilning har bir kunini g'animat bilib, miriqib dam olishga intilishyapti. Ayniqsa, «Foton» ochiq aksiyadorlik jamiyatining «Mash'al» oromgohidagi bolajonlarning har bir kuni zavqli, maroqli o'tmoqda.

363 nafar o'g'il-qizga mo'ljallangan oromgoh binosi qurilganiga 40 yildan oshgan, ilgarigi uslubda bo'lsa-da, shinamlikda zamonaviylaridan qolishmaydi. Bugunning nafasi ufurib turgan bezaklari, milliylik ruhi bilan sug'orilgan rang-barang rasmlari kishi diqqatini tortadi. Oromgoh direktori Malika Qosimova ilgari bolalar bog'chasi mudirasi bo'lgani uchunni,

ISMİ JISMIGA MONAND «MASH'AL»

bolajonlarning barchasi bilan tezda til topishib olibdi. Marina Striyenko va Oleg Markov kabi tarbiyachi va yetakchilar bolajonlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkillashtirishga intilishadi.

Bu maskanda biror kun yo'qki, qiziqlarli tadbir yoki musobaqa o'tkazilmasa. Biz ham «Mash'al»da mash'al yoqish bayramining ustidan qolibmiz. Tadbirda O'zbekiston respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi markaziy kengashi kotibi Ra'nojon Zaripova, partiya markaziy kengashi raisi o'rinosari Xayrinisa Mirzajonova ham qatnashib, partiya nomidan bolajonlarga sovg'a-salomlar ulashishdi...

Bunday so'lim maskanda dam olib, kuch-quvvatga to'lib qaytgan bolajonlar yangi o'quv yilini ham zo'r g'ayrat bilan boshlab yuborishlariga ishonamiz.

Hilola SALOYEVA.



chiqib

Mustaqillik xalqimiz taqdirlidagi eng oliv ne'matlardan biri. Yarim asrdan ziyod umr ko'rgan, yurtimning bir talay talaba yoshlariga adabiyot ilmidan saboq bergen, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, jumladan, xalq qo'shiqlari tadqiqoti bilan o'ttiz yildan ziyodroq vaqt

og'zaki ijodiyoti fanidan ayri holda tasavvur qila olmasdim. Bu fan bo'yicha ko'proq ma'lumot olish uchun kutubxonalarini, shahrimiz va viloyatimizning kitobxonalarini qidirib chiqdim. Afsuski, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti bo'yicha o'zbek tilida darslik topmadim. Ustozimiz professor H.

xususiyatlari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladim. Tadqiqotimni rus tilida yozishimga, avtoreferatini ham rus tilida chop etishimga to'g'ri keldi, chunki Oliy Attestatsiya Komissiyasi Moskvada joylashgan edi. Uning a'zolari ham faqat rus tili vositasida ish yuritar edilar. O'zbek mifikabini

eng qiyagan narsa xalq allalaridagi nozik qochirilmarni, xalq ishonch-e'tiqodi bilan bog'liq tag ma'noli so'zlarni tarjima qilish va rus tilida sharhlash bo'ldi. Ming shukrki,

Doktorlik dissertatsiyasini ham, uning avtoreferatini ham istiqlol sharofati bilan o'zbek tilida

ijodiyotining betakror namunalariga katta o'rin berilmoqda. Xalqimizning

Istiqlolim — istiqbolim

og'zaki ijodiyotini o'rganishga qaratilgan ilmiy-ijodiy ekspeditsiyalar yushtirilmoqda. Folklor

MUSTAQILLIK BERGAN IMKONLAR



Razzoqov bu darslikni yozishga endi kirishilganini aytganidan so'ng, ilmiy adabiyotlar qidira boshladim. O'zbek Folklori bo'yicha yoqlangan dissertationalar ham, ularning avtoreferatlari ham rus tilida ekanini ko'rib, hayratga tushdim. Ehtimol o'zbek folklori bilan rusiyabzon kishilar ham qiziqishar, lekin mazkur folklorini yaratgan xalq uchun bu xildagi tadqiqotlar muhimroq-ku!

Yillar o'tdi. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti bilan jiddiy shug'ullanib, «O'zbek xalq allalarining janr tabiatini va badiiy

bitirib, oliy ma'lumotni o'zbek tilida olgan mutaxassis uchun bu oson bo'lmadi. Ikki barobar ortiq kuch, vaqt va g'ayrat sarflashga to'g'ri keldi. Bu jarayonda meni

yozdim. Istiqlol sharofati bilan o'zbek xalq qo'shiqlarining badiyati va o'ziga xos xususiyatlari haqida Germaniyadagi, Suriya Arab Respublikasidagi ilmiy jurnallarda maqolalar bilan chiqish imkoniyatiga ega bo'ldim.

M u s t a q i l O'zbekistonimizning milliy, ma'naviy merosimizni, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, har tomonlama chuqur o'rganish, keng targ'ib qilish siyosati bois, bugungi kunda

milliy folklorimizni o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Navro'z sayollarida, Mustaqillik bayrami tantanalarida xalq og'zaki

ansambllarining tuzilishi va samarali ijodiy faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu yil 8-9-iyul kunlari O'zbekiston mustaqilligining 14 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalq o'lan va laparlari ijrochilarining respublika ko'rik-tanlovi ham fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi.

Aziz yoshlar! Siz istiqlol farzandlarisiz. Xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan barcha ma'naviy qadriyatlarining vorisisiz. Ularni o'rganish, xalqimizning asriy ma'naviy d o n i s h m a n d l i g i d a n bahramand bo'lish uchun istiqlol bergan imkoniyatdan samarali foydalaning.

Munavvara
YOQUBBEKOVA,
folklorshunos.

OROMGON TAASSUROTLARI

Men bu yilgi ta'tilimni «Sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli «Gagarin» nomli bolalar oromgohida dugonam Sayyora Hotamova bilan birga o'tkazdim. Oromgohimiz Chimyon tog' yonbag'irlarida joylashgan bo'lib, havosi niroyatda musaffo, toza ekan. Manzarasi esa juda chiroli: ko'krak kerib turgan purviyor tog'lar ustida oppoq qor, uzoqdan archazorlar ko'zga yaqqol tashlanadi.

Oromgohda biz dam oluvchilar uchun hamma sharoitlar muhayyo etilgan. Cho'milish havzasasi, har xil to'garaklar, shirinshakar ovqatlar tayyorlanadi g'an oshxona, qishlik, yozlik kinozal bizning xizmatimizda.

Oromgohimiz fazogir Yuriy Alekseyevich Gagarin nomi bilan atalgani bois guruhlarimiz ham Uran, Neptun, Jupiter, Mars, Venera, Saturn kabi sayyorolar nomi bilan yuritiladi. Dam olish vaqtida oromgohning bosh tarbiyachisi Oybarchin Ahadova hamrohligida toqqa sayohatga chiqdik. Ertalab soat 7.00 da boshlangan sayohatimiz kechki 17.00 gacha davom etdi. Sayohatdan bir olam


taassurotlar oldik. Tog'dan oqib tushadigan muzdek soy suvida miriqib cho'mildik, u yerda o'sadigan tog' giyohlaridan gerbariylar, noyob toshlar kolleksiyasini to'pladik. Horib-charchab qaytsak-da, quvonchimiz ichimizga sig'masdi.

Oromgohda anchagina dugonalar

o r t t i r d i m . Mavsum tugab, uya qaytar ekanmiz, bir-birimiz d a n ajralgimiz kelmay, ko'zda yosh bilan x a y r l a s h d i k . O'zaro xat yozishib, qo'ng'iroqlashib turishga kelishib oldik. Kelasi yil ham shu oromgohda yana uchrashishni niyat qildik.

«Yaxshi dam — mehnatga hamdam» deganlaridek, endi jonajon maktabim quchog'ida zo'r g'ayrat bilan faqat a'lo baholarga o'qimoqchiman.

Muhayyoxon AZLAROVA, poytaxtning Shayxontohur tumanidagi 169-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi.



Poytaxtimizning Xadra maydonida doimo bolajonlarning sho'x-shodon ovozlar, quvnoq kulgulari jaranglab turadigan bir maskan bor. Qanday maskan haqida gap ketayotganini anglagandirsiz? Ha, xuddi o'sha, Respublika o'quvchilar saroyi haqida.

Markazning tarixi haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, u 1935-yilda dastlabki maktabdan tashqari muassasa sifatida tashkil etilgan. Dastlab uning qoshida 7 yillik musiqa, 2 yillik gimnastlari maktablari, drama, raqs, tasviriy san'at va texnikaga oid bir qator to'garaklar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, endilikda

ilmgochlari bilan o'zaro ijodiy hamkorlik o'rnatgan. Unga qatnaydigan bolajonlar fan nomzodlari, doktorlari, atoqli olimlar, yetuk mutaxassislarining nazariy bilimlarini chuqur o'rganishayapti.

Shuningdek, saroyda bolalarning badiiy didini o'stirishga, ularning san'atga bo'lgan mehrini oshirishga ham alohida ahamiyat berilyapti. To'ychi Inog'omov nomli doirachilar dastasi, «Yulduz» bolalar dastasi, «Boychechak» xor jamoasi, «G'uncha» vokal-cholg'u va o'zbek xalq cholg'u asboblari dastalari nafaqat diyorimizda, balki Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlaridagi

Iste'dod

qadriyatlarimizning noyob uslublarini o'rganib bormoqdalar. Haykaltaroshlik va amaliy san'at to'garagi a'zolari o'z ijodlarida xalqimizning sharqona tur mush tarzini, diyorimizning go'zal tabiatini va tinch, osuda hayotini aks ettirishga intilishyapti. Ularga saboq berayotgan ustoz va uslubchilarining 40 foizini sobiq to'garak a'zolari tashkil etadi.

Shu yillar mobaynida saroy minglab yoshlarga hunar va bilim malakalarini o'rgatib, hayotda o'z o'rirlarini topishlarida yordam berib kelyapti. O'zbekiston xalq artisti Farruh Zokirov, Qahramon Dadayev,

Qizlarkxon



Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridagi maktab va maktabdan tashqari muassasalar qoshidagi to'garak a'zolari ishtiroy etdilar. Ular rang-tasvir, qalam tasvir, grafika, haykaltaroshlik, aralash texnikalar orqali vogelikni tasvirlash kabi

4 yo'nalishbo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyish qildilar. Viloyatlarda o'tkazilgan ko'rik-tanlovlardagi olib bo'lgan saralar orasidan eng saralarini tanlab berishi kerak edi bu ko'rgazma. Bu esa oson kechmadi. Chunki ko'rgazmaga qo'yilgan ishlarning bari biri-biridan yaxshi, ajoyib edi-da. Nihoyat hayajonli damlar yetib keldi. Hakamlar hay'ati a'zolari uzoq kengashib, Samarqand shahri, Ishtixon tumanidagi

15-maktabning 9-sinf o'quvchisi Hasan Haydarov hamda Respublika o'quvchilar saroyining «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi Tolip Maqsudovning ishlarini birinchi o'ringa loyiq topishdi. 2-o'rin Jizzax shahridagi 14-maktabning 7-sinf o'quvchisi Xurshid Nazarov hamda qoraqpog'istonlik Farida Yusupovaga, 3-o'rin esa surxondaryolik Shokir Karimov, toshkentlik Zulfiya Abdulina va namanganlik Nilufar Halilovalarga nasib etdi. Rag'batlantiruvchi o'rinn sohiblari ham talaygina bo'ldi.

Biz ulardan ayrimlarini suhbatga chorladik:

RASMILAR TILGA KIRGANDA

tengdoshlari

orasida ham o'zbek milliy san'atini namoyish etib kelmoqdalar.

Bolalarning texnikaga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga, ularning kelgusida malakali muhandis, ixtirochi, loyihiachi bo'lib yetishishlariga o'z hissasini qo'shib kelayotgan fan va texnika to'garaklari faoliyati maqtovga sazovordir. Bunday to'garaklarning juda ko'plab a'zolari Ulug'bek nomidagi iqtidorli yoshlar respublika jamg'armasining sovrindorlari bo'lishsa, tayyorasozlik to'garagi a'zolari Xalqaro aerokosmik maktabining haqiqiy a'zolari bo'lishga ulgurishgan. Radiokonstrukturlik to'garagi a'zolari hatto xorijiy mamlakatlardagi tengdoshlari bilan ham aloqa o'rnatishga muvaffaq bo'lishgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlarimizni tiklash, tasviriy va amaliy san'at bo'limida tashkil qilingan naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, milliy kashtachilik kabi to'garaklari mashg'ulotlarida bolalar xalq hunarmandchiligi va

Do'stmuhammedova, Dilafro'z Jabborova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari rejissyor Anatoliy Qobulov, professor Ahmadjon Odilov, texnika fanlari doktori Muborak Teshaboyeva kabi ko'plab madaniyat va san'at arboblari, fan nomzodlari, xalq hunarmandlari ham saroyning sobiq a'zolari bo'lishgan.

Ushbu maskanda deyarli har kuni biron bir tadbir yoki tantana o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Taniqli insonlar bilan uchrashuvlar deysizmi, ko'rik-tanlovlar deysizmi, eh-he, ularning har biri haqida alohida yozadigan bo'lsak, vaqtimiz ham, qog'ozimiz ham yetmaydi. Yaxshisi, yaqinda Respublika Xalq ta'limi vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, «Bolalar sportini rivojlantrish» jamg'armasi, Respublika o'quvchilar saroyi hamkorligida «Sport - tinchlik elchisi» mavzusida o'tkazilgan yosh musavvirlarning respublika ko'rgazmasi haqida to'xtala qolaylik.

Ko'rgazmada Qoraqpog'iston

Maftuna HABIBULLAYEVA,

Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi 27 - maktab o'quvchisi:

-Ko'plab ko'rik-tanlovlardaga ishtiroy etgan bo'lsam-da, har gal hayajonlanaveraman. 2000-yilda bo'lib o'tgan respublika tanlovida ishtiroy etib, faxrli o'rirlarni egallagandim. 2003-yilda «Mening mo'jazgina Vatanim» tanlovida ham chizgan rasmlarim munosib o'rindan.

Bilaman, hali o'z ustimga juda ko'p ishslashim, izlanishim lozim. Shundagina o'zim orzulagandek, taniqli musavvir bo'la olaman. Lekin hozirgacha qo'lgan kiritgan ozmi-ko'pmi yutuqlarimda tasviriy san'at o'qituvchimiz Gulbahor opa Bobomurodovaning hissasi katta. Keyinchalik taniqli rassom bo'lib ketsam, birinchi ustozingiz kim, deb so'rasalar, u kishining nomini faxr bilan tilga olaman.




Mironshoh NIYOZOV,

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani:

-Badiiy grafikaning rang-tavsir usulida ijod qilib kelayotganimga ham hash-pash deguncha 5 yil bo'lib qolibdi. Chizgan rasmlarim soni ham anchagini bo'lib qoldi. Tasviriy san'at bo'yicha katta malakaga ega bo'lgan otajonim Ibrohim Gadoyevni hamda tasviriy san'at o'qituvchimiz Halima Suyunovalarni o'zimga ustoz deb bilaman. Asarlarimda O'zbekistonimiz tabiatini, betakror go'zalliklarini aks ettirib, ustozlarim ishonchini oqlashga astoydil harakat qiliyaman.

Kelajakda mohir rassom bo'imochiman.



ko'plab

-Yoshligimdan tasviriy Chizgan rasmlarim «G'uncha», «Gulxan» jurnallarida chop etilganida quvonganimni bir ko'rsangiz edi. Bundan ruhlanib yana rasmlar chiza boshladim. O'z ishlarim bilan qator ko'rik-tanlovarda qatnashdim. Mana bugun ham respublika miqyosidagi katta ko'rgazmaning ishtiroychisi bo'lib turibman. Buning uchun tasviriy san'at o'qituvchimiz Olima opa Shukurovadan behad minnatdorman. Chunki murg'akkina qalbimda san'atga mehrni 26 yildan buyon biz bolajonlarga saboq berib kelayotgan ana shu mehridaryo ustozimiz uyg'otganlar-da.



«G'ALABA»

Furqat BAHRIYEV chizgan rasm.

Mirjalol O'SAROV,

Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi 16-maktab o'quvchisi:

san'atga qiziqaman.

Ko'rgazmani hayrat va hayajon bilan tomosha qilayotgan bolajonlar qalbidan kechayotgan o'ylarni o'qishga harakat qildik: tengdoshlarining xuddi o'zlariniki kabi jazzi, oddiy barmoqlari nimalarga qodir ekanligiga havas qilishayotgan bo'lsa, ne ajab?! Ko'rgazma sabab ularning murg'ak qalblarida san'atga, ijodga va sportga mehr uyg'onishiga umid qildik.

Mavjud OCHILOVA.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

— Qorin bezovta qilyaptimi, — dedim achinib, — dori beraymi?

— Ha, yo'o... — deydi qo'l siltab. — Endi doriga ishim qomaydi...

— Nimaga unday deysiz, oshqozon joyidami? Yo oldirib tashladingizmi?

— Turibdi, turmay qaqqayam borardi. Erman gullab qoldi. Shu desangiz tirnog'dagini damlab ichsam bo'ldi. Sen ko'r, men ko'r bo'p yurovraman. O'zi quritib, ancha-munchasini g'amlab qo'yuvdim, onangni emmagur kalamusham o'ch bo'ladi-da o'shanga. Erman — ming dardga davo derman deb bekorga aytganmi?

— Saharlab kelganingizga yana qorni og'rib qoptimi devdim-da.

Boymurod aka eshigim tagiga terib qo'yilgan toshlarga qarab «o'tiraylik» degandek ishora qildi. Sezdimki, maslahatli ishi bor. Qizlariga sovchi kelyapti deb eshituvdim. Bilaman, yoshlar nima bo'lgandayam to'ylarida nomdorroq xonanda bo'lishini xohlashadi. Xotini o'lib, o'nta bolaning tashvishi shu chigitdekkina odamning yelkasida qolgan.

— Ertalabki uyquni mazza qilib olayotgan ekansiz, uyg'otvordima mulla, — dedi Boymurod aka o'zini aybdor sanab.

— Qaytaga yaxshi bo'ldi, savobbi tagida qoldingiz, bomdodga ulgurib qoldim. Oqtosh qurg'ur kechasi bilan akillab uyqi bermadi hisob.

— Barini bilib turdim, — dedi Boymurod aka xorg'in jilmayib, — ammo-lekin xo'b ish qildingiz-da. Itingizni vaqtida chaqirib oldingiz. Bo'limasa, ke-etuvdi qulog'ini ushlab. Iziniyam topolmasdingiz.

Bundan chiqdi Boymurod akayam uxlolmapti-da. Hushtagimni eshitgan bo'lsa. Ajabo, itimni yarim kechada kim olib ketishi mumkin. Nahotki bu yerdgayam...

— It o'g'rilar bor deng?

— Anakka, — dedi Boymurod aka ko'zları kosasidan chiqqudek bo'lib. U kishi «ana xolos!» deya olmay, nuqlu «anakka» der edi. — Sizzi hech narsadan xabaringiz yo'qmi hali?

— Nimadan? — Boymurod akadagi hayajon menga ham o'tdi. — Kechasi biron gap bo'ldimi?

— Jinlar yomonam bazm qildi-ki! Hay... hay...

Jinlar?... qanaqa bazm? O'zi jinlar bazmiga tushib qoptimikin?! Shunisi yetmay turuvdi. Nima deyishimniyam bilmay talmovsirab qarayman.

— Shu desangiz, mulla, bizzi qishloqda bir domla buva bo'lguvchi edi. Qaytish qilgan. Xudo rahmat qilsin. Mendan oldin dachaylada qorovul bo'lgan yigitti otasi. O'sha odammi avliyo deyishardi, o'lay agar

avliyoligi rost ekan. Buni men shu kechasi bildim. Qarang, shundoq avliyo odam o'tib ketibdi-ya, g'aplatta qoppiz-a. Keling, o'sha kishiga atab bitta Qur'on o'qivorin.

Boymurod akaga jin tegibdi deb achinib ketdim. Gaplariyam biri bog'dan, biri tog'dan. Itdan gap ochib qo'yib, jinga o'tib ketdi. Endi domla buvani eslab qoldi. Qur'on o'qing deyaptimi, albatta, o'qish kerak. O'qidim... Boymurod aka some' bo'lib o'tirdi. Duoga qo'l ochdik. Allohnning oyatidan yetajak savobni shu yaqin oradan o'tganlarga, xususan domla buvaga yo'lladik.

Ana endi yaxshi bo'ldi, — dedi Boymurod aka xuddi domla buva oldidagi qarzini uzgandek. — Shu desangiz... Boymurod aka gapirovravmi degandek menga bir qarab qo'ydi. Men u kishiga hamon xavotir bilan qarab turardim. — Rahmatlik hovlida it boqmanglar, bo'qsaylar am nariroqda, chorborg'dan beri kelmasin,

— deb tayinlardilar. — Qarang, iti bor h o v l i g a f a r i s h t a l a r kirmasakan. Bir kuni domla buvaga uchrab, axir men cho'pon bo'lsam, itsiz ishim bitmasa, tog'da bo'rilar ko'p dedim. Rahmatlik juda ziyrak kishi edilar. Darrovda tushundilar.

— Boymurod, sen boqsang bo'ladi. Podachiga, ovchiga it zarur. Bunga yo'l bor. Agarda oq it bo'lsa yanayam yaxshi dedilar.

— Uvvalo oq it qidiraman, qani


topsam. Jonivorning har qanaqa xilidan bor deng. Ola-bula, kulrang, malla... Oqi yo'q-da! Bor-e, yo'g'ni yo'ndiramanmi deb duch kelgan it bilan podachilik qilib yurovurdim. Biroq, yurtchilik ekanda, yana oq itga ishimiz tushib qoldi. O'shanda sizzikidaqa oq it topilmadi-da, topilgandami, eh attang. Mulla Do'smat o'lmasmidi, boyaqish.

— Nima bo'lgan edi o'zi? — so'radim sabrim chidamay.

- Jin tekkandi mulla Do'smatga,

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



jin. Domla buva o'qib bir amallab olib, qolgan edilar. Keyingisida bo'madi, obqololmadilar. Kuchlari yetmadi. Ha yetmay qoldi. Mulla Do'smat uch kungacha og'zidan ko'pik sochib, alahlab-alahlab jon berdi. Qurib ketgur

Shoirlar – bolalarga

Aziz ABDURAZZOQ

OPASINGIL IRODA VA ZIYODA

Iroda va Ziyoda,
Odoblari ziyoda.
Shunday bo'lsin har doim,
Ushbu yorug' dunyoda.
Oyisiga yordamchi,
Iroda-yu Ziyoda.
Buvisiga «labbay»chi,
Iroda-yu Ziyoda.
Iroda qiz muktabda,
Ziyoda qiz bog'chada.
Muallimi maqtabi,
So'zlab berdi zag'chaday.
Bir kun katta bo'lishar,
Iroda-yu Ziyoda.
Aql bilan to'lishar,
Iroda-yu Ziyoda.
Iroda-yu Ziyoda,
Bor bo'lsinlar dunyoda.



Erkin MALIKOV

jinlar shu bilan tinchirmikin, desak, tinchimadi. Bitta odamning boshini yedigu, yetar, deyishmadi. Navbat mulla Do'smatning xotiniga keldi. Nima qilishini bilmaydi, bechora. Yashovray desa hali o'zi, hali u bolasi, bu bolasi shaytonlab qolyapti. Bosh olib ketay desa, boradigan joyi yo'q. Hovlini sotay desa birov olmaydi. Jin tekkan hovli kimgayam kerak deysiz. Kattalarga arz qilib ko'rdi, bo'lmadi. Xudosizlik zamoni edi-da, jinlarga ishonishmasdi. Duxtirlar bolalarini ukol qilib, onasining qo'liga xapdorilar berishdi. Domla buva oq it topib hovlidagi yong'oq tagiga bog'lab qo'yishni buyurdilar. Qani o'sha oq it? Yerdayam yo'q, ko'kdayam. Mulla Do'smatning xotini tarafdan urug'i topilib qolib, Sirdaryamiyey, ishqilib shu yoqlarga obketib qoldi. Keyin desangiz tepadagi tog' «qars» etib yorildi-yu, - deya Boymurod aka ro'paraga ishora qildi. - Birakayiga hammamizni tinchimiz buzilib qoldi. Tog' suriladi deb bizni daryani naryog'iga ko'chirvorishdi. Bu joylar qirq yil yotdi tashlandiq bo'lib. Qirq yil-a! Keyin sizlarga dacha qilib berishdi-da, mulla...

- E-eee, - hayratim oshib o'rnimdan turib ketdim, - gap shu joylar haqida borayotibdimi, e yashang-e, gapni teskarisidan boshlab, esniyam teskari qivoray dedingiz. Sal bo'limasa sizzi... hay mayli... Bu, mulla Do'smat deganning uyi qayerda edi? Bilsa bo'ladimi?

- Ja, bo'latta, - deya Boymurod aka halidan beri tizzasiga qo'ndirib o'tirgan do'ppisini qo'liga olib o'rnidan turdi va qibla tomonga yuzlandi, - hov anovi yong'oqni ko'ryapsizmi, o'sha joy-da.

Boymurod aka ko'rsatayotgan yong'oq daraxti mendan bir tomorqa narida - o'rtada Berdirahmatning hovlisi bor edi. Yong'oq juda tarvaqaylab o'sgan, qadimligi shundog'am sezilib turardi. O'zi bog' hovlida shunaqa uchto'rtta qari yong'oq va balx tutlari bor edi.

- O'sha yong'oq haliyam turibdi deng, - deyman daraxtni ko'rib turgan bo'lsam ham.

- Turad-da. Turmay qayoqqa boradi. Yildan-yilga ayqirib, semirib yetibdi. Kesishga yurak borakanmi? Xudosizlaram unga bolta urolmagan. Bo'limasa o'tindan boshqaga yaramaydi. Mag'izi yopishqoq.

Men bu gaplarga ishonishniyam-ishonmaslikniyam bilmay, hayron edim. Shundog'am har go'shasi sirli ko'rindigan bu joylar ko'z oldimda yanayam sirli tus olmoqda edi.

(Davomi bor.)

Aziz bolajonlar, xabaringiz bo'ldimi, yo'qmi, yaqinda Belorussiyaning Vitebsk shahrida 12 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan estrada



yerdagi butunlay o'zgacha manzarani ko'rib, avvaliga biroz hayron bo'ldim. Keyin esa festival tomoshabini emas, uning bevosita ishtirokchisiga aylanib qolganimni o'zim ham sezmay qolibman. Festival o'tayotgan maydonning xuddi

q o ' s h i q c h i l a r i ijrochilarining III-Xalqaro tanlovi (Vitebsk - 2005) bo'lib o'tdi. Festivalda ishtirok etgan muxbirimiz Nodira Mirzayeva telefon orqali to'lqinlanib, bizga quydigilarni so'zlab berdi: - Ko'plab anjuman va tanlovlarda bo'lganman. Lekin bunaqasini hali ko'rmagandim,-deya so'z boshladi Nodiraxon hayajon bilan.

Tanlovlarning osoyishta zallarda bir maromda, tartib bilan o'ttishiga, ishtirokchilar navbatmanavbat chiqib, qo'shiq kuylashlariga ko'nikib qolgan ekanmiz. Bu

YOSH QO'SHIQCHILAR FESTIVALLI

ertaklardagidek bezatilishini so'z bilan ta'riflab berolmayman. Uni faqat ko'z bilan ko'rib, zavqlanish kerak. Milliy libosdagi mezonlar qo'llarida non va tuz bilan dunyoning juda ko'plab mamlakatlardan kelgan estrada qo'shiqchilarini iliq qarshi oldilar. Ishtirokchilar 14 yildan buyon davom etib kelayotgan bu an'anaviy festival

hayotiga «singib ketishdi». Kimdir qo'shiq kuylagan, yana kim raqsga tushyapti. 9 kun mobaynida kun-u tun davom etgan anjumanning har bir kuni maroqli, taassurotlarga boy bo'ldi.

Bir yonda xalq hunarmandlarining «Olov, tuproq va usta» nomli tanlovi o'tayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdagisi «Temirchilar shahri» deb atalgan tadbir kulolu kosiblarni,

hunarmandu temirchilarni halol bellashuvga chorlayapti.

Ayniqsa, kuniga har bir davlatga bir soatdan vaqt ajratiladigan «Yulduzli soat» nomli konsert dasturidagi yulduzlarning chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Festivalda yurtimiz yoshlari ham qatnashishdi. Katta yoshlilar tanlovida Anora, kichiklarnikida esa Shirin ismli hamyurtlarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etib, uning konkursanti va diplomanti bo'lib qaytishdi.

Endigina 12 yoshni qoralasa-da, shunday nufuzli festival ishtirokchisi bo'lgan Shirinning taassurotlarini bilgimiz keldi:

-Shirinxon, juda hayajonlangandirsiz?- so'raymiz undan. -Unchalik emas. Chunki bu anjumanlardagi birinchi ishtirokim, sahnadagi ilk chiqishim emas. Konstitutsiya maydonining ochilish marosimida hamda O'zbekiston mustaqilligi kuniga bag'ishlangan katta konsertlarda ishtirok etganman. 2004-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan

KITOB BOZORIGA MARHAMAT!

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi nashr qilingan yangi darsliklar va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarning sotuvini tashkil etadi.

Sotuvga qo'yilgan yangi darslik va adabiyotlar Toshkent shahar Navoiy ko'chasi, 30-uy oldida tashkil etilgan «Kitob bozori»ning boshlanishidagi rastalaridan joy olgan.

Kitob rastalarida o'zbek, rus, qozoq, tojik, qirg'iz va turkman tillarida nashr qilingan yangi darsliklar mavjud.

«Kitob bozori»ga marhamat!
Murojaat uchun tel: 144-37-81

Muxtor Ashrafiy nomidagi respublika estrada qo'shiqchilarini tanlovida ham muvaffaqiyatli qatnashib, I-mukofotni qo'lga kiritganman. Shu yili Moskvada bo'lib o'tgan «Vokal ijrochilar tanlovi»da ham I-mukofot sohibi bo'lganman. Omadlargacha boy bo'lgani uchun ham 2004-yilni juda yaxshi ko'raman...

Endi mazkur 2005-yilimiz ham Shirinning hayotidagi unutilmas sahilardan biri bo'lib qolishi tayin. Chunki u mana shunday nufuzli festivalning diplomanti bo'loldi.

«Vitebsdag'i slavyan bozori» XVI-Xalqaro san'at festivali doirasida o'tgan III-Xalqaro musiqa festivalida quyidagi ishtirokchilar g'olib deb topilib, munosib taqdirlandilar:

Belorussiyalik Kseniya SITNIK «GRAN-PRI» sohibi bo'ldi hamda 5000 amerika miqdorida pul mukofotini qo'lga kiritdi.

Gruziyalik Iya ORDJONIKIDZEga «I-mukofot» hamda 2000 AQSH dollari miqdorida pul mukofoti nasib etdi. «II-mukofot» sohibi bo'lgan rossiyalik Anna GOCHEVA va qozog'istonlik Aktotii AJIGULOVAlar pul mukofotini 1000 dollardan bo'lishib olishdi. «III-mukofot»ga loyiq topilgan ruminiyalik ALINA va belorus



dollari kiritdi.



farzandi Mixail LILALAR ham 500 dollardan pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

Festival g'oliblarini chin dildan olqishlayotgan Shirinning ko'zlaridagi havasni ko'rib, undan nimalarni his qilayotganini so'rardin:

-Bu tengdoshlarimga juda havasim kelyapti. Hasad emas, havas bilan yashagan inson barcha orzulariga erishadi, deya uqtirishgan menga ota-onam.

Festivaldan juda katta taassurotlar oldim. Kamchiliklarimni, bilmaganlarimni o'rgandim. Endi o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, keyingi safar g'oliblar safidan o'rin olishga harakat qilaman...

Shirinning niyatlarini bizni ham to'lqinlantirib yubordi. Unga omadlar tilab, bunday anjumanlarda milliy libosimizni kiyib, ona tilimizdagi qo'shiqlarni kuylashini maslahat berdik. Milliylikka nima yetsin, siz nima deysiz?

*Muxbirimizning gaplarini
Feruza JALILOVA
yozib oldi.*



San'at g'unchalari

Muxtor Ashrafiy nomidagi respublika estrada

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
*Umida
ABDUAZIMOVA*

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrdan ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 14 538
Buyurtma N: J 1547

Dizayner va sahifalovchi:
**Otabek
ESHCHANOV.**
Navbatchi:
**Gulyuz
VALIYEVA.**

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-24-45